



“MUSIQA” DARSLARIDA KREATIV VA IJTIMOY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Muallif: Ergashev Murodbek Ikromovich ¹

Affilyatsiya: Andijon davlat pedagogika instituti. Tasviriy san`at va musiqa ta`limi kafedrasida mudiri, dotsent ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14378428>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada 5-6-7-sinf o`quvchilari uchun “Musiqqa” darslarida kreativ va ijtimoiy bilimlarni egallashga oid mavzular, kreativ va ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda o`qituvchining vazifasi, shuningdek o`quvchi shaxsida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarning mavjud holati, uni rivojlantirish omillari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: musiqa ta`limi, o`quvchi, musiqa madaniyati, ijodkorlik, ijtimoiy kompetentsiya, kreativ kompetentsiya, cholg'u asboblari, pedagog, san'at.

Bugungi kunga kelib musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan keng ko'lamli imkoniyatlar mavjud. Shunga ko'ra musiqa darslarida o'quvchilarga singdiriladigan o'quv-tarbiyaviy me'yorlar ularga tanlov imkoniyatini berishga xizmat qiladi. Shu maqsadda o'quv tarbiyaning mavqei, mazmuni va vazifalari ham kengaytirilmoqda. O'quvchilarning o'z hayotlarining mazmun-mohiyatini izlashlari jamiyat va kundalik ijtimoiy turmush talablaridan kelib chiqmoqda. Shuni alohida hisobga olish kerakki, o'quvchilik davri inson hayotining eng qimmatli davri bo'lib, bu davr mustaqil shakllanish mayllarini hosil qilish, yangi qadriyatlarni yaratishga tayyorlanish jarayoni sifatida inson taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar o'zlari egallagan bilim, ko'nikma va malakalar yordamida ijodiy qarorlar qabul qiladi hamda o'zi va ijtimoiy muhit uchun nafl bo'lgan kreativ g'oyalar yaratadi.

Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogikada o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari oliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning ijodkorlik va ijtimoiy holatidagi yetukliklari, bilimlari, o'quvchilarning ijodiy-ijtimoiy munosabatlarni faol o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakatlariga chuqur hurmat bilan qarash va ularni e'tirof etishga yo'naltirilgan faoliyat amalga oshirilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning o'ziga xos tabiatini hisobga olishi va ularga alohida e'tibor bilan qarashi, ularning kreativ va ijtimoiy faolligi, iqtidorlari va layoqatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilarni ongli tarzda o'ziga ishongan holda pedagogik me'yorlar doirasida muloqotga kirishishga va ularni pedagogik qo'llab-quvvatlashga tayyorlashi lozim.

Tadqiqot obyekti sifatida 5-6-7-sinf o'quvchilarining musiqa darslari tanlab olindi. Aynan ushbu sinflar oralig'ining tanlab olinishiga asosiy sabablardan biri bu yosh oralig'i murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichi hisoblanadi. Bu o'smirlik davri formal operastiyalar bosqichi bo'lib, bola nafaqat bevosita ko'rib turgan narsasi, balki mavhum tushunchalar va so'zlar vositasida ham fikr yurita oladi. Ushbu davr bolalarda ijtimoiylashuvning yana bir muhim bosqichiga o'tish hamda kreativ qobiliyatlarni rivojlanish jarayonini o'z ichiga oladi.

O'smirlik davridagi psixik taraqqiyotning o'ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Bu taraqqiyot o'quv jarayonida kechgani uchun ham to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati bola psixikaning muvozanati va uning turli fikr-o'ylardan chalg'ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda bola mustaqil ravishda fikrlashga, ko'proq o'z fikr-uylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko'paytirishga intiladi.

O'smir bolaning asosiy faoliyati maktab bilan bog'langan bo'lib, umumta'lim maktablarida tashkil etilgan darslar va xususan musiqa darslari uning kreativ hamda ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Musiqa madaniyati darsi – maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishning asosiy shaklidir. Musiqiy to'garaklar, fakultativ mashg'ulotlar ham amaliyotda bo'lsada, dars hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Musiqa madaniyati darslari musiqiy faoliyatning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Bular – ommaviy jamoaviy aytim, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash, savodxonlik, musiqa ijodkorligi, bolalar cholg'u asboblarda chalish faoliyatidir.

Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanganlik sifatleri o'qituvchilarga nisbatan hurmat va mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otadi. O'qituvchi esa bunday ijobiy munosabatdan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning erkin rivojlanishlari, o'z iqtidorlarini namoyon etishlari, ijodkorlik va ijtimoiy munosabatlarda kirishuvchanlik sifatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun ko'maklashish maqsadida foydalanishi kerak. Buning natijasida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida fanga yoki sohaga oid turli yangiliklarni muhokama qilish, ijodiy fikr almashuvlar vujudga keladi. Shuning uchun ham, o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyasi va uni rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagogika fanining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiladigan chuqur bilimga ega, yuksak tarbiya ko'rgan, ijodkor avlodini voyaga yetkazish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirishda, avvalo, pedagoglarning o'rni kattadir. Bugungi kunda ustozlar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya to'g'risida bizga meros bo'lib qolgan yozma manbalarida ta'lim-tarbiya talablari belgilangan ibratli qoidalarni chuqur o'rganish, tadqiq etish va ulardagi ilg'or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga tatbiq etgan holda ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi musiqa darslari davomida musiqa qanday yaratilganligini o'rganadi, musiqiy tafakkur qanday shakllanganligini tajribalar orqali egallab boradi. U nafaqat musiqaga oid qoida va tushunchalarni bilishi, balki bu bilimlarni amalda qo'llay olishi kerak. O'quvchi birinchi navbatda majoziy yoki nazariy ma'lumotni idrok qilishni o'rganishi, so'ngra olingan yangi ma'lumotlardan foydalanish darajasidan xabardor

bo'lishi kerak. Olingan ma'lumotni yangi sharoitda qo'llashni allaqachon ijodiy vazifani bajarish deb atash mumkin, chunki o'quvchi bilim va ko'nikmalarning butun tizimiga ega bo'lishi lozim.

Kreativ va ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining vazifasi o'quvchining mustaqil ravishda yechim topish istagini qo'llab-quvvatlashdir. Shuning uchun o'quvchining ichki kuchini uyg'otadigan, zavq bag'ishlaydigan mustaqil va ijodiy musiqa yaratishni tashkil etish muhimdir. Aytishimiz mumkinki, o'quvchilarda musiqa darslari jarayonida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun, avvalo, o'quv faoliyati faollashadigan, tafakkur reproduktiv darajadan ijodiy darajaga ko'tariladigan maxsus shart-sharoitlarni yaratish kerak.

O'quvchi shaxsida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarning mavjud holati, avvalo, bir qator tabiiy omillarga bog'liq holda aniqlanadi. Jumladan:

- fan va ta'lim taraqqiyotining tabiiy shart-sharoitlari va ta'lim tizimining dunyo hamjamiyatiga jadal kirib borishi;
- o'quvchilarning ijtimoiy muammolarini yechishda bartaraf etish zaruriyatining vujudga kelishi va ma'naviy madaniyatining rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojning dolzarblashuvi;
- ta'lim-tarbiya va madaniy hayotning tubdan o'zgarishi;
- ichki va tashqi muhit (irsiyat va tarbiya) kabilar.

Yuqori sifatli ta'lim – taraqqiyotning kuchli drayveri hamda qashshoqlikni kamaytirish va sog'liqni saqlash, gender tengligi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning eng kuchli vositalaridan biri. Bolalar bilim olib, muvaffaqiyat qozonsa, ular o'z hayotini va o'z mamlakatini o'zgartiradigan kattalarga aylanadilar. Shu sababdan musiqa darslarida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ustoz-shogirdlik an'analari ham alohida ahamiyat kasb etib, bu o'quvchilarning ijodiy va ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish, kelajakda o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish, hayotga moslashishiga yordam beradi.

Musiqa darslarida o'quvchilar o'zlarida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni hosil qilishi uchun uchta bosqichni bosib o'tadilar:

- biron-bir yetuk san'atkor yoki ustoz izidan ergashish, uning dasturi (kuy va ashulalari) va pedagogik uslubini o'zlashtirish;
- bilim va malakalarini kengaytirish, boshqa ustozlarning ijodidan bahramand bo'lish va ibrat olish;
- erishgan bilim va tajribalar asosida o'z uslubini yaratish.

Ana shu murakkab ijodiy jarayonda o'z yo'lini topishda ustozning ahamiyati eng muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ustoz timsoli, uning xurmat va e'tibori an'analarning o'ziga xos iymon va vijdoni vazifasini bajaradi.

Shuni unutmaslik kerakki, kreativlik va ijtimoiylik holatining o'zaro chambarchas bog'liqligiga qaramasdan ularning har biri sifati va vazifalariga ko'ra o'ziga xoslikka ega. Kreativlik insonning yuqori darajada ijodiy fikrlashi va yondashuvida namoyon bo'ladi. Ijtimoiylik esa, insonning kundalik faoliyatida o'z ifodasini topadi.

Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mavjud holatini aniqlashda quyidagi usullarni amalga oshirish talab qilinadi:

1) o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlanish jarayonining mavjud holati, rivojlantirish yo'llarini o'ziga xos pedagogik hodisa sifatida tahlil etish;

2) aniqlangan ko'rsatkichlarga tayangan holda o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosida kasbiy shakllantirish jarayoniga yaxlit didaktik hodisa sifatida yondashish;

3) o'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida qo'lga kiritilgan xulosalarni muayyan shakllarda tasvirlashga erishish, bunda ularning istiqbolda ijodkor o'quvchilar bilan ishlash xususiyatlarini hisobga olish kabilar.

Bu jarayonda bir tomondan musiqiy bilimlar jarayonida mavjud bo'lgan kreativ yondashuvlarga boshqa tomondan esa, ijtimoiylashuv nazariyasini ajdodlarimiz merosini tahlil qilish asosida boyitishga e'tibor qaratish lozim. Chunki o'zbek xalqi asrlar davomida to'plangan boy ma'aniy-ilmiiy merosga ega. Bu merosning deyarli barchasi ta'lim-tarbiya nazariyasiga singdirilgan.

Ta'kidlash lozimki, umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun musiqa fanidan yozilgan darsliklar, o'qituvchilar uchun yaratilgan metodik qo'llanmalar taniqli musiqashunos olimlar, sohaning etuk metodist pedagoglari muallifligida tuzilgan bo'lib, izchilligi, o'qitish prinsiplariga muvofiqligi bilan bugungi kun talablariga javob beradi. Yaratilgan didaktik ta'minot o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda fundamental vazifa bajarishi, shubhasizdir. Shuningdek, darsliklarning yangi avlodlarini yaratish, o'qitishning mazmunini xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish, ayniqsa, o'quvchilar bilimini PISA, PIRLS, TIMSS, ISILS, TALIS xalqaro baholash dasturlar talablariga muvofiqlashtirish, musiqa fani o'qitilishini yangi bosqichga olib chiqish eng muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa sifatida aytish joizki, pedagogik amaliyotda musiqa fani o'qitilishi borasida yetuk malakali kadrlar tayyorlash, maxsus o'quv xonalarini yaratish, cholg'u asboblari, texnik vositalar, ovoz yozish qurilmalari, sahna, sahna kiyimlari bilan ta'minlash kabi muammolar tugal bartaraf etilmagan. Bu musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida yechimini kutayotgan dolzarb masalalar mavjudligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>

<http://manzura90.zn.uz/psixologiya/yosh-davrlari-psixologiyasi/>

<https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki>

<https://www.usaid.gov/uz/uzbekistan/press-release>